

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 16,0 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish kelgusida ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 2023 yil 1 iyul holatiga



Savdo-7078



**Boshqa turdagi
xizmatlar- 5926**



**Yashash va ovqatlanish
bo‘yicha xizmatlar
1266**



Tashish va saqlash-900




Sog‘liqni saqlash- 470



Axborot va aloqa- 398

2023 yilning 1 iyul holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2023 yil 1 iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar 44,1 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,6% ni tashkil etmoqda.


Sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,5 % ga teng bo‘ldi.

2023 yilning yanvar-iyunida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 5 794,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish 109,6 foizni tashkil etdi, shu jumladan qishloq joylarida 619,9 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 22,9 foizini tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, transport xizmatlari (24,4 %), moliyaviy xizmatlar (23,9 %), savdo xizmatlari (21,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmati (5,7 %) va boshqa xizmatlar (24,8 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



**Yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘shish sur‘ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>		

Jami xizmatlar	8 069	5 794,6	4 804,9	109,6	100,0
-----------------------	--------------	----------------	----------------	--------------	--------------

*shu jumladan xizmat
turlari bo‘yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	148	328,2	265,6	121,6	5,7
--	-----	-------	-------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar	81	1 387,8	1 060,7	119,2	23,9
---------------------	----	---------	---------	-------	------

transport xizmati	721	1 415,0	1 273,8	103,2	24,4
-------------------	-----	---------	---------	-------	------

<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	559	699,3	598,7	103,3	12,1
---	-----	-------	-------	-------	------

yashash va ovqatlanish xizmatlari	738	156,1	123,1	103,3	2,7
--------------------------------------	-----	-------	-------	-------	-----

savdo xizmatlari	4494	1 229,0	1 008,9	109,2	21,2
------------------	------	---------	---------	-------	------

ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	236	130,2	114,2	105,3	2,2
---	-----	-------	-------	-------	-----


davomi

	<i>faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘sish sur‘ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>		
ta’lim sohasidagi xizmatlar	224	300,8	244,0	108,9	5,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	273	70,7	61,0	108,2	1,2
ijara xizmatlari	54	102,3	95,2	99,2	1,8
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	99	171,4	140,7	104,3	3,0
boshqa shaxsiy xizmatlar	104	231,9	180,7	106,4	4,0
memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115	80,4	68,3	108,7	1,4
boshqa turdagi xizmatlar	782	190,8	168,7	104,7	3,3

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 24,4 foizi) va moliyaviy (23,9 foizi) xizmatlarga to‘g‘ri keldi.


Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmati (121,6 foiz), moliyaviy xizmatlar (119,2 foiz), savdo xizmatlari (109,2 foiz) o‘sish sur‘ati yuqori bo‘ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi,
(2023 yil yanvar–iyun, jamiga nisbatan % da)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 21,2 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste‘molchiga yo‘naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko‘rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

2023 yil yanvar-iyun oylari da savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2023 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

Transport xizmatlari

1415,0 mlrd. so‘m



Moliyaviy xizmatlar

1387,8 mlrd. so‘m

Savdo xizmatlari

1229,0 mlrd. so‘m




Boshqa xizmatlar

443,8 mlrd. so‘m

**Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlari**

328,2 mlrd. so‘m



**Ta‘lim sohasi
xizmatlari**

300,8 mlrd. so‘m

Shaxsiy xizmatlar

231,9 mlrd. so‘m



Kompyuterlarni ta‘mirlash

171,4 mlrd. so‘m bo‘yicha xizmatlar

**Yashash va ovqatlanish
xizmatlari**

156,1 mlrd. so‘m




**Ko‘chmas mulk bilan
bog‘liq**

130,2 mlrd. so‘m

Joriy yil yanvar-iyun oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo‘lib, 1415,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan, (2022 yil yanvar-iyun oylarida 1273,8 mlrd. so‘m) nisbatan 103,2 foizni tashkil etgan, shuningdek ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 1387,8 mlrd. so‘m (2022 yil yanvar-iyun oylarida 1060,7 mlrd. so‘m), savdo xizmatlari 1229,0 mlrd. so‘m (2022 yil yanvar-iyun oylarida 1008,9 mlrd. so‘m) va aloqa va axborotlashtirish xizmati 328,2 mlrd.so‘m (2022 yil yanvar-iyun oylarida 265,6 mlrd. so‘m) hissalariga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlari, % (2023 yil yanvar-iyun oylari uchun)



Shu bilan birga, eng yuqori o‘shish sur‘atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (21,6 %), moliyaviy xizmatlar (19,2 %) savdo xizmatlari (9,2 %) va qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o‘shishiga imkoniyat yaratdi. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘shish sur‘ati 19,2 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2023 yil yanvar- iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 387,8 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, 2022 yil yanvar- iyun oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati esa 119,2 % ni tashkil etdi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



2023 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarish

	<i>Hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sinh sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga ming so‘mda</i>	<i>O‘sinh sur‘ati, % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 794,6	109,6	2 924,4	108,2
Nukus sh.	2 398,7	109,0	7 149,7	107,3
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	311,4	118,8	1 487,6	116,7
Beruniy	301,0	114,4	1 489,9	112,3
Bo‘zatov	31,5	110,0	1 439,6	109,5
Qonliko‘l	82,4	112,5	1 549,4	111,2
Qorao‘zak	96,8	113,9	1 786,8	112,9
Kegeyli	110,5	110,2	1 486,9	109,5
Qo‘ng‘irot	846,6	102,8	6 275,8	101,5
Mo‘ynoq	68,3	111,6	2 040,1	110,6
Nukus t.	123,6	111,8	2 326,7	109,7
Taxiatosh	148,4	117,5	1 944,7	116,5
Taxtako‘pir	84,1	109,6	2 161,1	114,7
To‘rtko‘l	431,1	109,7	1 910,9	107,9
Xo‘jayli	254,6	109,0	1 995,6	107,6
Chimboy	171,6	108,7	1 491,3	107,9
Shumanay	83,1	119,6	1 439,8	118,4
Ellikqal‘a	250,9	114,3	1 489,9	112,2

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sinh sur‘ati Amudaryo tumani (118,8 %) ga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning ulushi Nukus shahri (41,4 foiz), Qo‘ng‘irot tumani (14,6 foiz), To‘rtko‘l tumani (7,4 foiz) va Amudaryo (5,4 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘sinh sur‘atlari Qo‘ng‘irot tumanida (102,8 %), Chimboy tumanida (108,7 %) kuzatildi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2924,4 ming so‘mni tashkil qildi. O‘sinh sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 108,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkich hududlar o‘rtasida Nukus shahrida 7149,7 ming so‘mdan Bo‘zatov tumanida 1439,6 ming so‘mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘shish sur‘ati
(2023 yil yanvar-iyun oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nukus shahrida 7149,7 ming so‘mga teng bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,3 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o‘sishi Shumanay (118,4 %), Amudaryo (116,7 %), Taxiatosh (116,5 %), Taxtako‘pir (114,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi, Bo‘zatov (1439,6 ming so‘m), Shumanay (1439,8 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nukus shahrida (319,3 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (149,7 mlrd. so‘m) va Amudaryo (104,2 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Bo‘zatov (8,2 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 229,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 109,2 % ni tashkil etdi.


2023 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati, % da



2022 yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘shish sur‘ati Taxiato‘sh (157,4 %), Nukus shahrida 1 (114,1 %) va Nukus tumanida (108,2 %) kuzatildi.

Eng kam o‘shish sur‘ati Taxtako‘pir tumanida (102,8 %) qayd etildi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Nukus shahri (26,0 %) va To‘rtko‘l (12,2 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Bo‘zatov (0,7 %), Mo‘ynoq (1,3 %) va Qonliko‘l (1,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 1415,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 103,2 % ni tashkil etdi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘shish sur‘ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qo‘ng‘irot tumanida (543,6 mlrd. so‘m) va Nukus shahrida (411,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (5,8 mlrd. so‘m) qayd etildi.